



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA FRANSUZ TILINI O'RGATISHNING MUHIM JIHATLARI

Hayitboyeva Dilnoza Ne'mat qizi

O'zMU talabasi

hayitboyeva03@gmail.com

97-120-66-61

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8063255>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 15-June 2023 yil

Ma'qullandi: 18-June 2023 yil

Nashr qilindi: 21-June 2023 yil

KEY WORDS

*psixologik tayyorgarlik,
grammatik hodisa, leksik usul,
interaktiv o'yinlar.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada maktab hayotiga endigina qadam qo'yayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilarga xorijiy tillarni o'rgatishda duch kelinadigan qiyinchiliklar, ularni qanday qilib oson yo'llar bilan bartaraf etish mumkinligi haqida so'z boradi.

Bugungi kunda chet tillarni o'rganishga bo'lgan qiziqish kundan kunga ortib bormoqda. Chet tilini mukammal egallagan va o'z kasbini yaxshi bilgan mutaxassislar chet ellarda o'qib yoki xorijliklar bilan amalga oshirilayotgan qo'shma korxonalarda faoliyat ko'rsatib mamlakatimiz ravnaqiga ulkan hissa qo'shmoqdalar. Bunday ijobiy natijalarga erishishda esa chet tilini bilishning ahamiyati beqiyosdir. Shuning uchun chet tillarni bolalarga erta o'rgatish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. 2012-yil 10-dekabr kuni "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorning qabul qilinishi yurtimiz umumta'lim maktablarida chet tili fanining o'qitish tizimini tubdan o'zgartirib, sohada keng ko'lamli islohotlarni boshlab yubordi. 2013-2014- o'quv yilidan boshlab yurtimizning ko'pgina umumta'lim maktablarining 1-sinflarida chet tili fani sifatida fransuz tilini o'qitish ham yo'lga qo'yiladi. "Maktabga psixologik tayyorlik bolaning ilk o'quv motivlarining shakllanganligi, bilish jarayonlarining (sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol) yetarli darajada rivojlanganligi yangi ijtimoiy muhitga moslashuv va jamoaviy hamkorlik ko'nikmalarining mavjudligi, ma'naviy ruhiy salohiyat, shuningdek, aqliy imkoniyatlarning ta'lim talablariga mutanosibligi bilan izohlanadi". Demak, ayni shu davrda bola psixologik jihatdan chet tilini o'rganishga tayyor hisoblanib, unda chet tilini o'rganishda muhim omillardan biri bo'lmish bilish jarayonlari yetarli darajada rivojlanar ekan, bu esa mamlakatda fransuz tilini erta o'qitilishiga muhim zamin yaratadi.

Birinchi sinf o'quvchilariga chet tili o'rgatishda asosan gapirish va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliy maqsad hisoblanadi. Bu davrda bolalarning Yoshi va psixologik xususiyatidan kelib chiqib, interaktiv o'yinlar orqali dars o'tish maqsadga muvofiqdir. Bolalar o'yin orqali egallagan bilimlarini yaxshi va uzoqroq eslab qoladilar, Grammatik hodisalarni tez va oson o'rganadilar, darsda barcha o'quvchilar bir vaqtda ishtirok etadilar, hattoki o'zlashtirishi past bolalarda ham darsda faol ishtirok etish imkoniyati

tug'iladi. Ma'lumki fransuz tili grammatikasi ingliz tili grammatikasidan biroz qiyinligi bilan farq qiladi. Maktabda fransuz tilini o'rganishni boshlagan bolalarga grammatik hodisalar va strukturalarni turg'un birikma yoki iboralar sifatida o'rgatiladi. Masalan, "venir" fe'lini ko'plik va birlikda tuslanishiga to'xtalib o'tilmasdan quyidagi misol orqali o'quvchilarga ko'plik formasini mashq qildirish tavsiya qilinadi:

Les Muminovs viennent de Samarkand. Elles viennent chez elles.

Birinchi sinf o'quvchilariga grammatik hodislar leksik usulda o'rgatiladi. Grammatik qoidalar ustida ishlanmaydi, ammo o'qituvchi o'quvchilar tomonidan qilingan xatolarni turli yo'llar orqali tuzatilishiga ahamiyat berishi kerak. Xato tuzilgan gapni to'g'ri aytilgan gapni qaytarish orqali tuzatish mumkin. To'g'ri gap konstruksiyalarini mashq qildirish uchun «Memory» o'yinidan foydalanish mumkin. Masalan, *nous venons ensemble. Nous venons ensemble chez Mokhina.* Bunday hollarda ko'proq bolalarni eslab qolishlariga oid mashqlarni bajartirish tavsiya qilinadi. Chunki bu yoshda bolalarning xotirasi kuchli va motivatsiyasi yuqori bo'ladi. Ular o'zlarining qiziquvchanligi tufayli ko'p narsalarni bilishga tushunishga harakat qiladilar. Ayniqsa ularda chet tilini o'rganishga bo'lgan ishtiyoq yuqori bo'ladi. Agar bolalarga fransuz tilini erkin, qo'rquvdan xoli, o'yin tarzida o'rgatilsa, ijobiy natijalarga erishish mumkin. Bolalarning xotirasi qiziqarli, g'aroyib, kishini taajjubga soladigan ma'lumotlar va hodisalarni yaxshi eslab qola oladi. Shuning uchun ularga muntazam ravishda she'rlarni yod oldirish, hikoya va ertaklar aytib berishning eng qulay usullaridan foydalanish kerak.

Bolalar o'yinlar orqali o'rganishni xohlaydilar, o'rganayotgan narsalar ularning qiziqishini uyg'ota olsa va hayot tarziga bog'liq holda o'rgatilsa, ular ishtiyoq bilan o'rganadilar. Bolalar o'rganish davomida o'zlari biron bir narsalarni qilishni istaydilar. O'quvchilar sinfdan-sinfga o'tgan sari bilim saviyasiga qarab metodlarni qo'llagan holda dars o'tish maqsadga muvofiqdir.

«Boshlang'ich sinf o'quvchilari mantiqiy fikrlashlari ham mumkin, biroq shuni yodda tutish lozimki, bu yoshda fikrlash ko'rgazmalilikka asoslangan bo'ladi. Ko'pincha, boshlang'ich sinf o'quvchilari xatti-harakatlarida ishonchsizlik kuzatiladi, bu ularning yangi, notanish joylarga tushishi, bilimlarning yetishmasligi, takroriy muvaffaqiyatsizlik holatlari bilan bog'liqdir. O'zida ishonch, fikrida sobitlik xususiyatlari 3-sinfdan boshlab kuzatilib, bu o'zgarishlar ularni muvaffaqiyatlariga yetaklaydi.»

Xulosa sifatida shuni ayta olamizki, boshlang'ich sinf o'quvchilariga fransuz tilidan dars berishda ularning psixologik xususiyatlarini va yoshini inobatga olgan holda darslarni tashkillashtirish, ko'rgazmali qurollardan va tarqatma materiallardan to'g'ri foydalanish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Roziqova M., Boltaboyeva M., Axatova R. Olti yoshli bolalarning maktabga umumiyetuklik darajasini o'rganish bo'yicha tavsiyalar. Toshkent 2014
2. Tolerantlik-muhim-ijtimoiy-pedagogik-muammo-sifatida. pdf
3. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva SH., Sariev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. Darslik. T.: "Noshir" 2009 yil
4. Xudoyberganova M., Muxtorova M. 3-sinfda ona tili darslari. T.: "O'qituvchi", 2005 yil.
5. Abdullayeva Q. Birinchi sinfda nutq o'stirish. T.: "O'qituvchi" 1998 yil.
6. Umarova X. Qiziqarli grammatika. T.: "O'qituvchi" 2002 yil.

7. Jo'rayeva N. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining dolzarb masalalari. Scientific Journal Impact Factor, 2(9). 2021.
8. Yunusova D. Working on reading consciousness in elementary classes. Scientific Journal Impact Factor, 2(9). 2021.
9. G'ulomov A. Ona tili o'qitish prinsiplari va metodlari. -T.: O'qituvchi, 1992.
10. Yo'ldoshev J.G, Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. - T.: O'qituvchi, 2004.
11. Hayitboyeva, D., & Shaxobiddinova, S. (2023). EKOTURIZM TUSHUNCHASI VA UNING NAZARIY ASOSLARI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(5 Part 2), 101-104.
12. Hayitboyeva, D., & Shaxobiddinova, S. (2023). EKOTURIZM TUSHUNCHASI VA UNING TURLARI. Евразийский журнал академических исследований, 3(5 Part 4), 107-110.
13. Shaxobiddinova, S. M. Q., & Hayitboyeva, D. N. M. Q. (2022). LINGVOKULTUROLOGIK TERMINLAR LUG'ATINING NAZARIY ASOSLARI. Academic research in educational sciences, 3(5), 1338-1343.
14. Shaxobiddinova, S. M., & Ne'mat qizi Hayitboyeva, D. LINGVOKULTUROLOGIK TERMINLAR LUG'ATINING NAZARIY ASOSLARI.
15. Hayitboyeva, D., & Shakhobiddinova, S. (2023). TOURISM ECONOMICS AND MANAGEMENT. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 279-283.
16. Hayitboyeva, D., & Shakhobiddinova, S. (2023). SPECIFIC FUNCTIONS OF THE MODERN TOURIST MARKET. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(6), 275-278.
17. Jumanazarova, Hayitboyeva H. D. (2023). ZAMONAVIY DUNYODA FRANSUZ TILI.
18. Shaxobiddinova, S., & Hayitboyeva, D. (2022). FRENCH NATIONAL CULTURAL EXPRESSIONS. Science and Innovation, 1(2), 186-190.